

**Maxmasobirova N.  
TDSHI tadqiqotchisi  
Adizov A. i.f.n.**

## **INNOVATSION FAOLIYAT O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY BARQARORLIKNI TA’MINLASHNING MUHIM OMILI SIFATIDA**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekistonda innovatsion faoliyatni rivojlantirish masalalari yoritilgan bo‘lib, mamlakatimizda innovatsion faoliyatni rivojlantirish borasida qilinayotgan ishlar, innovatsion faoliyat samaradorligi, uning mamlakat iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta’minlashdagi o‘rni, innovatsion faoliyatni rivojlantirish muammolariga e’tibor qaratilgan.

**Аннотация.** В этой статье рассматриваются вопросы инновационного развития Узбекистана. Уделяется особое внимание государственной политике в области инновационного развития, эффективности инновационной деятельности, ее роли в обеспечении экономической стабильности и конкурентоспособности страны, а также рассматриваются проблемы развития инновационной деятельности в стране.

**Annotation.** This article considers the issues of innovative development of Uzbekistan. Special attention is paid to the state policy in the field of innovative development, efficiency of innovation activity, its role in ensuring the economic stability and competitiveness of the country, and also discusses the problems of innovation development in the country.

**Kalit so‘zlar:** innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion tovar va xizmalar, raqobatbardoshlik, ITTKI, fan va ishlab chiqarish hamkorligi, yuqori texnologiyalar.

**Ключевые слова:** инновация, инновационная деятельность, инновационные товары и сервисы, конкурентоспособность, НИОКР, партнерство науки и производства, высокие технологии.

**Keywords:** innovation, innovation activity, innovative products and services, competitiveness, R&D, science and industry partnership, high technologies.

Iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, xalqaro maydonda milliy raqobatbardosh-likni ta’minlashda innovatsion faoliyat muhim omil sanaladi. Aynan innovatsion faoliyat va uning naqadar yaxshi yo‘lga qo‘yilganligi O‘zbekistonda innovatsion klasterlarni shakllantirish imkoniyatini belgilab beruvchi muhim shartlardan biridir. Shu sababli ham mamlakatimizda innovatsion klasterlarni shakllantirish va bu jarayonda jahon mamlakatlari tajribasidan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilishdan oldin O‘zbekistonda innovatsion faoliyatning rivojlanganlik darajasini o‘rganish lozimdir.

O‘tgan yillar davomida mamlakatimizda bozor iqtisodiyotini rivojlantirish, xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, qonunchilik bazasini takomillashtirish, ta’lim sohasini tubdan isloh qilish borasida katta islohotlar amalga oshirildi. Bugungi kunga kelib esa, milliy xo‘jalikka innovatsion iqtisodiyot elementlarini keng joriy qilish, innovatsion faoliyatni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ilmiy-tadqiqot faoliyatini sifat jihatdan

yangi bosqichga olib chiqish, fan va ishlab chiqarish oʻrtasida korporativ hamkorlikni kengaytirishga katta eʼtibor berilmoqda. Bu yoʻnalishda bir qancha yutuqlarga ham erilgandir: misol uchun yalpi ichki mahsulotning qariyb 10-12 foizi taʼlim sohasiga yoʻnaltirilgan va bu miqdor YUNESKO tomonidan tavsiya etilgan darajadan ikki marotaba yuqori<sup>1</sup>. 400 dan ortiq ilmiy markazlarda, oliy oʻquv yurtlarida, konstruktorlik tashkilotlarida va sanoat korxonalarida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ammo, tadqiqotlarning 90 foizdan ortigʻini, xususan fundamental loyihalarning 99,9 foiz, amaliy loyihlarning esa 3/4 qismi Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi ilmiy-tadqiqot institutlari, iqtisodiyot, taʼlim va sogʻliqni saqlash vazirliklari tizimi hissasiga toʻgʻri keladi<sup>2</sup> (yaʼni asosan davlat tasarrufidagi tashkilotlarga).

Maʼlumki har qanday sohaning rivoji uning huquqiy-normativ bazasining rivojlanganligiga bogʻliqdir. Mustaqillikdan soʻng mamlakat hukumati tomonidan, ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish borasida bir qancha islohotlar amalga oshirildi. Oʻzbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2008-yilning 15-iyunida imzolagan “Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni ragʻbatlantirish borasidagi qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-916-sonli Qaroridan soʻng mamlakatimizda innovatsion faoliyatni rivojlantirishga alohida eʼtibor berila boshlandi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirish boʻyicha harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”gi 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni<sup>3</sup> hamda 2017-yil 29-noyabrda imzolagan “Oʻzbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish toʻgʻrisida”gi PF-5264-sonli Farmoni<sup>4</sup> chiqarilgach, shuningdek, 2018-yilni mamlakatimiz rahbari tomonidan “Faol tadbirkorlik, innovatsion gʻoyalar va texnologiyalarni qoʻllab-quvvatlash yili” deb eʼlon qilingach mamlakatimizda innovatsion faoliyatni rivojlantirish masalasi kun tartibiga chiqdi. Soʻnggi yillarda, Oʻzbekistonda innovatsion faoliyatni rivojlantirish borasida qabul qilingan huquqiy-normativ hujjatlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkindir<sup>5</sup>:

- Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi 05.05.2018-y. PQ-3597-sonli Qarori<sup>6</sup> (unga koʻra Oʻzbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tuzilmasida Fan va ilmiy-texnik

<sup>1</sup>Oʻzbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlari va 2016-yilga moʻljallangan iqtisodiy dasturni eng muhim ustuvor yoʻnalishlariga bagʻishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi nutqi, 16.01.2016 ([www.gov.uz](http://www.gov.uz))

<sup>2</sup>Камилова М.Х. Факторы и условия для инновационного развития Республики Узбекистан//Миллий инновация тизими шаклланишининг илмий-концептуал ва амалий жиҳатлари: хорижий тажриба ва ундан фойдаланишининг асосий йўналишлари: республика илмий-амалий конференцияси материаллари. –Т.: ТошДШИ, 2016. – С. 41

<sup>3</sup><http://lex.uz/docs/3107036> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” ги 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли Фармони

<sup>4</sup><http://www.lex.uz/docs/3431993> Указ Президента Республики Узбекистан “Об образовании Министерства инновационного развития Республики Узбекистан”

<sup>5</sup> [http://www.uzscience.uz/uz/regulations\\_02.html](http://www.uzscience.uz/uz/regulations_02.html)

<sup>6</sup><http://uza.uz/oz/documents/faol-tadbirkorlik-va-innovatsion-faoliyatni-rivozhlantirish--07-05-2018> Фаол тadbirkorlik ва инновацион фаолиятни ривожлантириш учун шарт-шароитларни яратиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида

tadqiqotlarni rivojlantirish boshqarmasi, Innovatsion rivojlanish va novatorlik gʻoyalarini qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasi tashkil etildi);

- Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi 17.02.2017-y. PQ-2789-sonli Qarori;

- Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash toʻgʻrisida”gi 30.06.2017-y. PF-5099-sonli Farmoni<sup>7</sup>;

- Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy oʻquv yurtidan keyingi taʼlim tizimini yanada takomillashtirish toʻgʻrisida» gi 22.05.2017-y. 304-sonli Qarori;

- Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish toʻgʻrisida» gi 19.05.2017-y. 302-sonli Qarori va boshqalar.

Ammo, aytib oʻtish lozimki, Oʻzbekistonda innovatsion faoliyat boʻyicha qonun hali qabul qilinmagan. 61-moddadan iborat boʻlgan hamda qabul qilingach mamlakatimizda innovatsion faoliyatning huquqiy asosini belgilab beruvchi “Innovatsion faoliyat toʻgʻrisida”gi Qonun<sup>8</sup> hamda 47-moddadan iborat “Fan” toʻgʻrisidagi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni<sup>9</sup> loyihalari muhokamadan oʻtkazilib, qabul qilinish arafasidadir.

Oʻzbekistonda ITTKI (ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari)ni olib boruvchi asosiy tashkilot yuqorida taʼkidlanganidek Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi boʻlsa, ilm-fan, innovatsion soha rivojlanishini nazorat qiluvchi davlat organlari va tashkilotlariga Oʻzbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi, Oʻzbekiston Respublikasi Fan va texnologiyalar agentligi, Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi, Oʻzbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi va boshqalarni kiritish mumkin. Ularning asosiy vazifalari quyidagi 1-jadvalda aks ettirilgan.

*1-jadval*

### **Oʻzbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi va Oʻzbekiston Respublikasi Fan va texnologiyalar agentligining vazifalari**

Oʻzbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi*	Oʻzbekiston Respublikasi Fan va texnologiyalar agentligining**
<ul style="list-style-type: none"><li>• innovatsion va ilmiy-texnik rivojlantirish sohasida jamiyat va davlat hayotini har tomonlama rivojlantirishga, mamlakatning intellektual va texnologik salohiyatini oshirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish;</li><li>• davlat va jamiyat qurilishi, iqtisodiyot tarmoqlari,</li></ul>	<ul style="list-style-type: none"><li>• mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy rivojlantirish vazifalarini va zamo-naviy ilm-fan yutuqlarini inobatga olgan hol-da fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlarini belgilash va amalga oshirish tadbirlarini amalga oshirish;</li></ul>

<sup>7</sup> <http://lex.uz/docs/3249654> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Республикада ахборот технология-лари соҳасини ривожлантириш учун шарт-шароитларни тубдан яхшилаш чора-тадбирлари тўғрисида” ги 2017 йил 30 июндаги ПФ–5099-сон Фармони

<sup>8</sup> <https://regulateon.gov.uz/uz/documents/2104> Закон Республики Узбекистан Об инновационной деятельности (проект)

<sup>9</sup> <https://my.gov.uz/ru/getPublicService/332> Закон Республики Узбекистан “О Науке” (проект).

<p>qishloq xoʻjaligi, ijtimoiy rivojlanishga, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish tizimiga innovatsiyalarni joriy qilish;</p> <ul style="list-style-type: none"><li>• ilgʻor texnologiyalar joriy etilishini tashabbus qilish, muvofiqlashtirish va ragʻbatlantirish;</li><li>• innovatsion faoliyatni uning samaradorligi indikatorlari asosida baholash, ilgʻor texnologiyalarni birinchi darajada joriy etish talab qilinadigan tegishli tarmoq va sohalarni rivojlantirishning asosiy yoʻnalishlarini belgilash;</li><li>• innovatsion gʻoyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etish masalalari boʻyicha davlat boshqaruvi organlari, ilmiy-tadqiqot va axborot-tahlil muassasalari hamda boshqa tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish;</li><li>• ilmiy-tadqiqot, taʼlim va boshqa muassasalar tomonidan amalga oshiriladigan davlat ilmiy-texnikaviy dasturlari va loyihalarining yagona buyurtmachisi boʻlish;</li><li>• yuklatilgan vazifalar doirasida davlat organlari va boshqa tashkilotlarda ishlarning holatini oʻrganish, innovatsiya faoliyatini takomillashtirish boʻyicha takliflarni toʻplash va umumlashtirishni amalga oshirish.</li></ul>	<ul style="list-style-type: none"><li>• davlat ilmiy-texnika dasturlarini shakllantirish, amalga oshirish va ular ijro-sining hamda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda ilmiy-tadqiqot ishlari natijalaridan foydalanishning tizimli monitoringini olib borish;</li><li>• muhim tarmoqlararo ilmiy-texnik dasturlar ijrosini taʼminlash;</li><li>• iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy soha uchun fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni bajarishi boʻyicha ilmiy-texnik xizmatlar koʻrsatishda davlat topshiriqlarini shakllantirish;</li><li>• har yilgi Respublika innovatsion gʻoyalar, texnologiyalar va loyihalar yarmarkasi oʻtkazilishini tashkil etish hamda uning doirasida imzolangan shartnomalarning bajarilishi boʻyicha monitoring olib borish;</li><li>• fan va texnologiyalar sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, xorijiy investitsiyalar va grantlarni jalb etish, xorijiy hamkorlar bilan qoʻshma ilmiy-texnik loyihalar va innovatsion ishlanmalar bajarilishini tashkil etish;</li><li>• oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash faoliyatini rejalashtirish va muvofiqlashtirish.</li></ul>
----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

**Manba:** \* [www.lex.uz/docs/3431993](http://www.lex.uz/docs/3431993) Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлигини ташкил этиш тўғрисида”ги ПФ-5264-сон 2017 йил 29 ноябрдаги Фармони; \*\*  
[www.uzscience.uz/uz/committee\\_00.html](http://www.uzscience.uz/uz/committee_00.html)/Agentlikning asosiy vazifalari va funksiyalari.

Ushbu 1-jadvaldan koʻrishimiz mumkinki, har ikki tashkilotning asosiy vazifalari oʻzaro chambarchas boʻlib, Oʻzbekiston Respublikasi Fan va texnologiyalar agentligi asosan fan va texnologiyalar sohasidagi jarayonlarni qoʻllab-quvvatlash, rivojlantirish bilan shugʻullansa, Innovatsion rivojlanish vazirligi mamlakatimizda innovatsion sohada yagona davlat siyosatini olib boruvchi organdir.

Mamlakatimizda innovatsion faoliyatning rivojlanganlik darajasini tahlil qilish uchun quyida Oʻzbekistonda innovatsion faoliyat hamda fan va texnologiyalarni rivojlanishi bilan bogʻliq statistik maʼlumotlarga nazar tashlaymiz.

Quyidagi 2-jadvalda 2017-yilda mamlakatimizda davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida bajarilgan ilmiy-tadqiqot loyihalari toʻgʻrisida maʼlumot keltirilgan. Jadvalda koʻrishimiz mumkinki, oʻtgan yili mamlakatimizda davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida jami 1750 ta loyihalar amalga oshirilgan boʻlsa, ulardan eng katta ulush, yaʼni 39 foizi (683 ta) tabiiy fanlarga toʻgʻri kelsa, eng kam ulush, yaʼni 16 foiz loyihalar qishloq xoʻjaligi fanlariga toʻgʻri kelmoqda.


## 2017-yilda mamlakatimizda davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida bajarilgan ilmiy-tadqiqot loyihalari toʻgʻrisida maʼlumot

№	Fan yoʻnalishlari	Jami loyihalar soni	Shu jumladan:			
			Fundamental loyihalar	Amaliy loyihalar	Innovatsiya ishlari	Yosh olimlar loyihalari
1	Texnika fanlari	482	84	249	95	54
2	Qishloq xoʻjalik fanlari	283	27	150	81	25
3	Tabiiy fanlar	683	185	257	177	64
4	Ijtimoiy-gumanitar fanlar	302	66	185	17	34
<b>Jami</b>		<b>1750</b>	<b>362</b>	<b>841</b>	<b>370</b>	<b>177</b>

**Manba:** [www.uzscience.uz/uz/press\\_07.html](http://www.uzscience.uz/uz/press_07.html) Oʻzbekiston Respublikasi Fan va texnologiyalar agentligida amalga oshirilayotgan ishlar boʻyicha III chorak holatiga maʼlumotnoma

Loyihalarning turi boʻyicha qaraydigan boʻlsak, korish mumkinki, umumiy loyihalarning deyarli yarmi amaliy loyihalar boʻlsa, innovatsion loyihalarning ulushi 21 foizga teng.

**Quyidagi grafikda ilmiy tadqiqot tajriba konstruktorlik ishlanmalarini bajargan tashkilotlar dinamikasi (2000-2016-yillar) berilgan.**



**1-rasm. Ilmiy tadqiqot tajriba konstruktorlik ishlanmalarini bajargan tashkilotlar dinamikasi (2000-2016 yillar)<sup>10</sup>**

<sup>10</sup> <https://stat.uz/uz/432-analitcheskie-materialy-uz/2035-ilm-va-fan> Oʻzbekiston Respublikasida ilm va fan

Maʼlumotlardan koʻrishimiz mumkinki, 2000-yilda mamlakatimizda 301 tashkilotlar ITTKI bilan shugʻullangan boʻlsa, 2016-yilga kelib bunday tashkilotlar soni 2000-yilga nisbatan 136 taga koʻpaydi va 437 tani tashkil etdi. Ular tomonidan oʻz kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot tajriba konstruktorlik ishlari hajmi 2016-yilda 396 mlrd. soʻmga yetdi va 2000 yilga nisbatan 3 barobarga oshdi.

3-jadvalda esa 2016-yilda fan sohalari boʻyicha sektorlar kesimida ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga ketgan xarajatlar haqida maʼlumot berilgan. Undan koʻrishimiz mumkinki, 2016 yilda davlat sektoriga tegishli tashkilotlarda ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarga qilingan xarajatlarning asosiy qismi tabiiy fanlar hissasiga (jami xarajatlarning 46,4 foizi), tadbirkorlik sektorida texnika fanlari hissasiga (64,4 foiz), oliy taʼlim hamda xususiy notijorat sektorlarida ijtimoiy fanlar hissasiga (mos ravishda 27,2 va 51,1 foiz) toʻgʻri keladi.

3-jadval

**2016 yilda fan sohalari boʻyicha sektorlar kesimida ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga ketgan xarajatlar, mln.soʻm**

	Jami	Shu jumladan:					
		tabiiy fanlar	texnika fanlari	tibbiyot fanlari	qishloq xoʻjaligi fanlari	ijtimoiy fanlar	gumanitar fanlar
<b>Jami</b>	440285,2	143634,3	154625,7	28737,3	36706,1	47288,8	29293,1
<b>shundan:</b>							
<b>davlat sektori</b>	178812,9	83044,5	21871,8	15171,9	26481	15161,2	17082,5
<b>tadbirkorlik sektori</b>	173622,6	42930,8	111779,5	6199,3	5334	6929,1	449,9
<b>oliy taʼlim sektori</b>	82424,6	17659	18683,3	7254,8	4891	22427,8	11508,5
<b>xususiy notijorat sektor</b>	5425,1	-	2291,0	111,2	-	2770,7	252,2

**Manba:** <https://stat.uz/uz/432-analiticheskie-materialy-uz/2035-ilm-va-fan> Oʻzbekiston Respublikasida ilm va fan

Quyidagi 4-jadvalda esa 2000-2016-yillar davomida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini bajargan ilmiy xodimlar haqida maʼlumot keltirilgan.

**Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajargan ilmiy xodimlar  
(2000-2016-yillar)**

	2000	2005	2010	2016
<b>Ilmiy xodimlar – jami (oliy ta’lim muassasalarining ilmiy-pedagogik xodimlarini qo‘shgan holda)</b>	36837	34094	36358	36984
<b>shu jumladan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajargan tadqiqotchi-mutaxassislar</b>	25083	26685	30343	31966
<b>ulardan ilmiy darajaga ega bo‘lganlar:</b>				
<b>fan doktori</b>	2009	2353	2549	2242
<b>fan nomzodi</b>	8192	8363	9254	8200


**Manba:** <https://stat.uz/uz/432-analiticheskie-materialy-uz/2035-ilm-va-fan> O‘zbekiston Respublikasida ilm va fan

Jadvalda ko‘rishimiz mumkinki, 2016-yilda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari bilan band bo‘lgan xodimlar sonida 2000-yillarga nisbatan katta o‘zgarish qayd etilmagan. Ularning soni nisbatan ortib borgan bir sharoitda, ulardan ilmiy darajaga ega bo‘lganlar (fan doktorlari va fan nomzodlari) ning soni 2010-yilga nisbatan kamaygan.

2016-yilda fan sohalari bo‘yicha ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajargan tadqiqotchi-mutaxassislar soni haqida gapiradigan bo‘lsak, 2016-yilda tadqiqotchi-mutaxassislarning 26,2 foizi (8391 nafar) tabiiy fanlar sohasida, 20,2 foizi (6457 nafar) gumanitar fanlar sohasida, 18,3 foizi (5852 nafar) ijtimoiy fanlar sohasida, qolgan 35,2 foizi (11266 nafar) texnika, tibbiyot, qishloq xo‘jaligi fanlari sohasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan<sup>11</sup>.

Quyidagi grafik (2-diagramma)da so‘nggi yillarda o‘z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxonalar va tashkilotlar dinamikasi keltirilgan.

<sup>11</sup><https://stat.uz/uz/432-analiticheskie-materialy-uz/2035-ilm-va-fan> O‘zbekiston Respublikasida ilm va fan



2-rasm. Oʻz kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxonalar va tashkilotlar soni (2010-2016 yillar)<sup>12</sup>

Undan koʻrishimiz mumkinki, innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxonalar va tashkilotlar soni 2010-yildan 2016 yilga qadar 8 barobarga koʻpayib, 289 tadan 2374 taga yetdi. Jumladan birinchi marta innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqarishni oʻzlashtirgan korxonalar soni 696 taga koʻpaydi.


Hududiy taqsimotga qarasa, 2016-yilda oʻz kuchi bilan ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmining asosiy qismi Toshkent shahriga (48 foizi), Qoraqalpogʻiston Respublikasi (18,3 foizi), Toshkent viloyati (9,3 foiz) va Andijon viloyatiga (8,3 foizi) toʻgʻri kelmoqda, qolgan 16,1 foizi respublikaning boshqa viloyatlari hissasiga toʻgʻri keladi<sup>13</sup>.

3-rasm 2008-2016-yillarda innovatsion mahsulotlar, ishlar va xizmatlar hajmi haqida statistik maʼlumotlar keltirilgan.

<sup>12</sup><https://stat.uz/uz/432-analitcheskie-materialy-uz/2038-innovatsion-faoliyat> Oʻzbekiston Respublikasida innovatsion faoliyat

<sup>13</sup><https://stat.uz/uz/432-analitcheskie-materialy-uz/2038-innovatsion-faoliyat> Oʻzbekiston Respublikasida innovatsion faoliyat





3-rasm. Innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi (2008-2016, mlrd.so'm)<sup>14</sup>

Ko`rishimiz mumkinki, innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi 2016-yilda 10688,2 mlrd.so'mni tashkil qildi. Ushbu ko'rsatkich 2015-yilga nisbatan 1,3 barobar, 2008 yilga nisbatan 8 barobarga ko'paygan. Innovatsiyalarga xarajatlar 2008-yilga nisbatan 5 barobarga ko'paygan bo'lsa, 2015-yilga nisbatan 53 foizga kamaygan hamda 2013-yil, 2014-yillarga nisbatan ham kamroq ko'rsatkichni qady etgan.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlarga qaraydigan bo'lsak (5-jadval), ko'rishimiz mumkinki, 2010-yilda innovatsiyalar asosan tashkilotning o'z mablag'lari hisobidan (69,7 foizi) moliyalashtirilgan. 2014-yildan boshqa mablag'lar hissasi (55,4 foiz) oshgan. 2016-yilda tashkilotning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirish 2010 yilga nisbatan 6,4 barobar oshgan.

5-jadval

**Moliyalashtirish manbalari bo'yicha texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar, mlrd.so'm (2010-2016 yillar)**

	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016
<b>Texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar</b>	264,4	372,6	311,9	4634,2	3757,4	5528,3	2571,4
<b>shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha:</b>							
<b>tashkilotning o'z</b>	184,3	263,2	213,4	2501,5	1381,5	1251,8	1180,0

<sup>14</sup>O'sha manba.

mablagʻlari							
xorijiy kapital	48,3	24,9	39,9	1228,7	32,3	156,6	314,9
tijorat banklari kreditlari	30,0	63,7	26,8	533,5	262,5	280,1	157,3
boshqa mablagʻlar	1,8	20,9	31,7	370,6	2081,0	3839,7	919,1

Manba: <https://stat.uz/uz/432-analiticheskie-materialy-uz/2038-innovatsion-faoliyat> Oʻzbekiston Respublikasida innovatsion faoliyat

2016-yilda texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlarning 45,9 foizi (1180,0 mlrd.soʻm) takilotning oʻz mablagʻlari hisobidan, 12,2 foizi (314,9 mlrd.soʻm) xorijiy kapital, 6,1 foizi (157,3 mlrd.soʻm) tijorat banklari kreditlari, 35,7 foizi (919,1 mlrd.soʻm) boshqa mablagʻlar hisobidan moliyalashtirilgan.

2016-yilda 893 ta korxonalar va tashkilotlar tomonidan 1816 turdagi texnologik innovatsiya joriy etildi. Joriy qilingan texnologik innovatsiyalarning 44 foizi (799 tasi) kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga toʻgʻri keladi (6-jadval).

2016-yilda innovatsiya joriy qilgan tashkilotlar va innovatsiyalar sonini hududiy nuqtaʼi nazardan tahlil qilsa, Respublika boʻyicha 2016-yilda har bir innovatsion faol tashkilot oʻrtacha 2 tadan innovatsiya joriy qilgan. Jumladan har bir innovatsion faol tashkilotda Andijon, Fargʻona viloyatlari, Toshkent shahrida oʻrtacha 3 tadan innovatsiya, Buxoro, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand, Sirdaryo, Toshkent viloyatlarida oʻrtacha 2 tadan innovatsiya, Qoraqalpogʻiston Respublikasi, Jizzax, Namangan, Surxondaryo va Xorazm viloyalarida oʻrtacha 1 tadan innovatsiya joriy qilingan<sup>15</sup>.

6-jadval

### Joriy qilingan innovatsiyalar soni (2016-yil)

	Jami	Shu jumladan tadqiq qilinganlar:				
		oʻz kuchi bilan	boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik da	ulardan :		boshqa tashkilotlar tomonidan
				ilmiy tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda	oliy taʼlim muassasalari bilan hamkorlikda	
<b>Texnologik innovatsiyalar</b>	1816	1523	117	41	5	176
<b>shu jumladan:</b>						


<sup>15</sup><https://stat.uz/uz/432-analiticheskie-materialy-uz/2038-innovatsion-faoliyat> Oʻzbekiston Respublikasida innovatsion faoliyat

<b>mahsulotlar boʻyicha innovatsiyalar</b>	1118	973	73	15	4	72
<b>jarayonlar boʻyicha innovatsiyalar</b>	698	550	44	26	1	104
<b>Marketing innovatsiyalar</b>	51	39	-	-	-	12
<b>Tashkiliy innovatsiyalar</b>	39	29	-	-	-	10

Manba: <https://stat.uz/uz/432-analiticheskie-materialy-uz/2038-innovatsion-faoliyat> Oʻzbekiston Respublikasida innovatsion faoliyat

Yuqoridagi tahlillardan koʻrishimiz mumkinki, Oʻzbekistonda innovatsion faoliyat, fan-texnologiyalar sohasida koʻplab ishlar, loyihalar amalga oshirilmoqda. ITTKI bilan shugʻullanayotgan korxonalarining, ishlab chiqarilayotgan innovatsion tovar va xizmatlarning ortib borayotgani buning isbotidir. Ammo, ushbu soha-larning yanada rivojlanishi, mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatbardoshligini belgilab beruvchi muhim omillarga aylanishi borasida bir qancha muammolar mavjuddir. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Ilmiy tadqiqot va konstruktorlik ishlarini moliyalashtirish va texnologik ishlanmalarga xarajatlarning yetarli darajada emasligi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlaridan AQSH, Germaniya, Finlandiyada mamlakat YaIMning 2,8-2,9 foizi, Isroilda 4,3 foizi, Yaoniyada 3,4 foizi, rivojlanayotgan mamlakatlardan Koreya Respublikasida 4,2 foizi, Xitoyda 2 foizi, Rossiyada 1,1 foizi ITTKI ga yoʻnaltiriladi<sup>16</sup>.



4-rasm. Oʻzbekistonda ITTKI xarajatlari (2020-2030, YaIMdan foizda)<sup>17</sup>

<sup>16</sup>Cornell University, INSEAD, and WIPO. The Global Innovation Index 2017: Innovation Feeding the World. Ithaca, Fontainebleau, and Geneva, 2017. – P.336.

<sup>17</sup>[www.docfoc.com/](http://www.docfoc.com/) Uzbekistan 2030: Defining Pattern of Growth and Policies for Accelerated Transformation; China, December 18, 2014; CER (Uzbekistan).

Oʻzbekistonda bu koʻrsatkich 0,2-0,3 foizlar atrofidadir va faqatgina 3020-yilga kelib 1,1 foizga chiqishi prognoz qilingan (4-rasm).

- innovatsion faoliyatning asosan davlat byudjeti tomonidan moliyalashtirilishi va xususiy sektor ulushining pastligi. Jahon tajribasiga qaraydigan boʻsak, Yaponiyada ITTKI ga sarflangan umumiy xarajatlarning 77,8 foizi biznes vakillari tomonidan moliyalashtirilgan boʻlsa, Xitoyda bu koʻrsatkich 74,7 foiz, Koreya Respublikasida 74,5 foiz, BAA da 74,2 foiz, Germaniyada 65,8 foiz, AQSH da 64,1 foizga teng. Yaʼni ITTKI ning asosiy qismi davlat byudjeti tomonidan emas, balki xususiy sektor tomonidan moliyalashtiriladi<sup>18</sup>.

- taʼlim, fan va sanoat ishlab chiqarish hamkorligining past darajada ekanligi. GII 2017 ga koʻra, AQSH, Isroil, Shvetsariya, Germaniya, Malayziya kabi mamlakatlarda oliy taʼlim va ishlab chiqarish oʻrtasida yuqori darajadagi hamkorlik oʻrnatilgan boʻlsa (7 balldan 5 balldan yuqori natijani), qoʻshni mamlakat Tojikiston va Qozogʻiston ham bu koʻrsatkich boʻyicha yaxshi natijaga erishganlar (7 balldan 4,3 va 3,4 ballni qayd etganlar)<sup>19</sup>. Afsuski, GII 2017 ga Oʻzbekiston kiritilmagan boʻlib, faqatgina baʼzi masalarda tilga olingan<sup>20</sup>.

- ITTKI, taʼlim, sogʻliqni saqlash sohasida oylik maosh hajmining yetarli darajada yuqori emasligi va yosh mutaxassislarning xorijga chiqib ketishi (“aql oqib oʻtishi”). (2018-yilning 1-sentabridan boshlab ITTKI, fan va taʼlim sohasida faoliyat yurituvchilarning oyligini oshirish belgilangan).

- Yuqori malakali kadrlar yetishmasligi, taʼlim tizimidagi kompleks muammolarning mavjudligi, oliy taʼlim bilan qamrab olinish darajasining pastligi (9,6 foiz)<sup>21</sup>.

- Start-up loyihalarini amalga oshirish, innovatsiyalar bozori haqida maʼlumotning yetishmasligi.

- Mamlakat hududlarining iqtisodiy jihatdan ratsional rivojlanmaganligi, gaz, suv, elektr energiya yetishmasligi bilan bogʻliq muammolarni hal qilishda innovatsion yondoshuvlar (alternativi energiya mabalaridan foydalanish, tomchilab sugʻorish va boshqalar) ning yetishmasligi;

- innovatsion faoliyat bilan bogʻliq boʻlgan sohalarning modernizatsiyalashuvi darajasining yuqori holatda emasligi.

- innovatsion faoliyatni rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi ikki eng muhim omilning rivojlanmaganligi: 1. internet tezligining pastligi; 2. inson kapitalining yuqori darajada shakllantirilmaganligi va boshqalar.

Mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida mamlakatimizda innovatsion rivojlanishning asosiy yoʻnalishlari belgilangan boʻlib, ularga quyidagilar kiradi<sup>22</sup>:

<sup>18</sup>Cornell University, INSEAD, and WIPO. The Global Innovation Index 2017: Innovation Feeding the World. Ithaca, Fontainebleau, and Geneva, 2017. – P.361.

<sup>19</sup>Oʻsha manba. –P.363.

<sup>20</sup>GII 2017 da Ozbekiston faqatgina qishloq xoʻjaligi yoʻnalishida tahsil olayotgan talabalar soni boʻyicha dunyoda yetakchi 5 mamlakat (Efiyopiya, Kambodja, Ventam, Albiya qatorida) ekanligi taʼkidlab oʻtilgan.

<sup>21</sup>Ботир Кобилов (Эксперт совета «Буюк келажак», исследователь Гарвардской школы бизнеса). Дефицитное высшее образование. <https://www.gazeta.uz/ru/2018/05/28/education/>

<sup>22</sup> [www.lex.uz/docs/3431993](http://www.lex.uz/docs/3431993) Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлигини ташкил этиш тўғрисида”ги ПФ-5264-сон 2017 йил 29 ноябрдаги Фармони;

- mamlakatning intellektual va texnologik salohiyatini oshirishning uzoq muddatli ssenariylari asosida ustuvor soha va tarmoqlarni innovatsion rivojlantirishning kelajakdagi modellarini shakllantirish imkonini beradigan strategik rejalashtirish tizimini yaratish;

- davlat xizmatlari ko‘rsatishning tartib-taomillarini optimallashtirish va soddalashtirishni, davlat boshqaruvi organlari faoliyatining samaradorligini oshirishni ta’minlaydigan davlat boshqaruvining innovatsion shakllarini joriy etish;

- hududlar ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatining barqaror o‘sishi, shuningdek, aholining hayot darajasi va farovonligi yuksalishi uchun zarur sharoitlarni ta’minlashga qodir bo‘lgan fan va innovatsiya faoliyatini rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini shakllantirish;

- innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish sohasiga investitsiyalarni keng jalb etish, ularning yanada rivojlanishini ta’minlovchi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;

- ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g‘oyalari va ishlanmalarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish, shuningdek, ushbu faoliyatda iqtidorli yoshlar faol ishtirok etishi uchun qulay sharoitlar yaratish;

- mamlakatimiz ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatining istiqbolli yutuqlarini targ‘ib qilish va joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, shu jumladan ilmiy-eksperimental ixtisoslashtirilgan laboratoriyalar, yuqori texnologiyalar markazlari, texnoparklar va boshqa innovatsiyaga yo‘naltirilgan tuzilmalarni, xususan chet el investorlari ishtirokida tashkil etish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;

- tabiatni muhofaza qilish, resurs va energiya tejaydigan texnologiyalarni, jumladan muqobil energiya manbalarini, suvni tozalash va chuchuklashtirish, undan oqilona foydalanishning zamonaviy shakllarini keng qo‘llash orqali faol joriy etish;

- sog‘liqni saqlash sohasida kasalliklarni barvaqt aniqlash va profilaktika qilish, o‘z vaqtida va samarali davolashga imkon beruvchi ilg‘or texnologiyalarni keng joriy etish, shuningdek, jamiyatda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va sog‘lom avlodni tarbiyalashga qaratilgan kompleks tizimni yaratish;

- agrar sohaga innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni, shu jumladan ishlab chiqarish samaradorligini va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini oshirishga, mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashga ko‘maklashuvchi qishloq xo‘jaligi ekinlarining yangi seleksiya navlarini targ‘ib qilish;

- iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarini har tomonlama rivojlantirishni ta’minlovchi zamonaviy axborot-kommunikatsiya, sanoat va boshqa innovatsion texnologiyalarni jadal joriy etish;

- innovatsiya faoliyati sohasida ilg‘or xorijiy (xalqaro) tashkilotlar bilan, shu jumladan ularni nou-xau, nanotexnologiyalar va yuqori texnologik tovar (ish, xizmat)larni ishlab chiqarishning mahalliy bozoriga jalb qilish orqali hamkorlikni kengaytirish. Bu borada bugungi kunda MDH mamlakatlari, AQSh, Xitoy Xalq

Respublikasi, Yevropa mamlakatlari, Turkiya kabi mamlakatlar bilan hamkorlik yoʻlga qoʻyilgan va qoʻshma loyihalar amalga oshirilmoqda<sup>23</sup>.

Shunday qilib aytish mumkinki, bugungi kunda Oʻzbekistonda innovatsion faoliyatni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash, rivojlantirish, ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish, fan-taʼlim-ishlab chiqarish integratsiyasini yoʻlga qoʻyishga katta eʼtibor berilmoqda va koʻplab islohotlar, yirik loyiha va dasturlar amalga oshirilmoqda. Ammo, shu bilan birga taʼkidlash lozimki, bu jarayon bir necha yilda zudlik bilan amalga oshadigan jarayon emas va uzoq muddatni talab etadi. Hozirgi bosqichda esa mavjud muammolarni oʻz vaqtida aniqlash va ularni hal qilishga qaratilgan chuqur oʻylangan, kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish lozim.

---

<sup>23</sup> [http://www.uzscience.uz/uz/activities\\_04.html](http://www.uzscience.uz/uz/activities_04.html) Fan va texnologiyalar agentligining xalqaro ilmiy-texnik hamkorlik doirasida olib borayotgan faoliyati haqida maʼlumot